

SUN'IY INTELEKT TEXNOLOGIYALARINING TA'LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI

Maydonov Jahongir

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy tezisda sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim tizimidagi o'rni va rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Tahlil doirasida sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga ta'siri va uning afzalliklari hamda mavjud muammolari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ta'lim texnologiyalari, raqamli ta'lim, algoritmlar, innovatsiya, deep learning, neural network.

So'nggi yillarda axborot texnologiyalari tizimining juda tez rivojlanishi natijasida ta'lim tizimida yangicha yondashuvlar shakllanmoqda. Raqamli o'zgarish jarayoni ta'lim muhitini butunlay o'zgartirib, yangi metodik texnologiyalarni yaratishni talab qilmoqda. Ushbu jarayonda sun'iy intellekt texnologiyalari juda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Sun'iy intellekt inson aqliy faoliyatiga xos bo'lgan jarayonlarni kompyuter tizimlari orqali modellashtirish imkonini beruvchi texnologiyalar majmuasidir. AI(sun'iy intellekt) machine learning(mashinaviy o'rganish) yordamida insonga taqlid qilishni o'rganadi va u ma'lumotlarni tahlil qilish, o'rganish, prognoz qilish hamda qaror qabul qilish kabi funksiyalarni bajarishga va yanada rivojlantirishga qodir.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim tizimiga joriy etilishi o'qitish jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Avvalo, ushbu texnologiyalar yordamida talabalarning bilim darajasini tahlil qilish va individual o'quv dasturlarini shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Maxsus algoritmlar talabaning bilim darajasini aniqlab, unga mos o'quv materiallarini tavsiya etishi mumkin.

Shuningdek, sun'iy intellekt ta'lim jarayonini avtomatlashtirishga ham xizmat qiladi. Masalan, test topshiriqlarini tekshirish, o'quv natijalarini tahlil qilish hamda statistik ma'lumotlarni shakllantirish jarayonlari sun'iy intellekt tizimlari orqali tez va

samarali amalga oshiriladi. To'g'ri so'rovlar yuborish orqali undan yanada samarali foydalanish mumkin. Hattoki, deepseek kabi sun'iy intellektlar juda ham murakkab matematik masalalarni yecha oladi.

So'nggi yillarda Neural Network va Deep Learning texnologiyalarining rivojlanishi sun'iy intellekt tizimlarining imkoniyatlarini yanana kengaytirdi. Ushbu yangicha texnologiyalar murakkab tuzilmali ma'lumotlarni tahlil qilish, tasvir va matnlarni qayta ishlash hamda prognozlash jarayonlarida keng qo'llaniladi. Ta'lim tizimida esa bu texnologiyalar aqlli o'quv platformalarini yaratish hamda o'rganuvchilarga amaliy tavsiyalar berish imkonini yaratadi. SI katta ehtimol bilan kelajakda bundan ham ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt asosidagi ta'lim platformalari(Ustoz AI, Haady AI) talabalarga mustaqil ravishda bilim olish imkonini yaratadi. Onlayn o'quv tizimlari foydalanuvchining faoliyatini tahlil qilib, uning bilim darajasiga mos o'quv materiallarini taklif etadi.

Sun'iy intellektidan individual o'rganish jarayonida samarali foydalanish uchun unga to'g'ri so'rovlar jo'natish muhim ko'nikma hisoblanadi. Masalan: Talaba "ushbu mavzuda esse yozib ber" so'rovni jo'natsa foydalanuvchi o'zining mustaqil fikrlash ko'nikmasini pasayishiga sabab bo'ladi, agar "menga esse yozishda qanaqa struktura qo'llash va eng ko'p qilinadigan xatolarni amaliy misollar bilan tushuntirib ber" so'rovini yuborsa, bu holatda foydalanuvchi jarayonni qanday bo'lishini o'rganadi muhimi u o'z kreativligini ushbu jarayonda qo'llaydi. Vazifani sun'iy intellektga to'liq bajartirish kerak emas balki undan qanday bajarishni o'rganish kerak, shundagina sun'iy intellektidan foydalanish jarayoni foydali bo'ladi.

Shu bilan birga, tanganing ikki tomoni bo'lganidek, sun'iy intellektidan foydalanish jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, texnologiyalarga haddan tashqari bog'lanish, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi hamda akademik halollik masalalari dolzarb hisoblanadi. Sun'iy intellektidan noto'g'ri foydalanish o'rganuvchilarning mustaqil fikrlash, kreativlik kabi qobiliyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalari zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. U o'quv jarayonini optimallashtirish, talabalarning bilim darajasini tahlil qilish hamda individual ta'lim imkoniyatlarini yaratishda katta imkoniyatlar taqdim etadi. Agarda undan noto'g'ri foydalanilsa bu jarayon yuqorida aytib o'tilgan salbiy muammolarga olib kelishi mumkin.

Kelajakda AI(sun'iy intellekt) texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali ta'lim sifatini yanada oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akbarova, S., Kayumova, M., Azizova, M., Karimova, F., & Hojiyeva, I. (2023, December). Intelligent systems applications in inclusive education management: a systematic mapping study. In *Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems* (pp. 491-496).
2. Ashurov, J. D. (2024). OLIY TA'LIMDA SUN'IY INTELEKT TEXNOLOGIYALARI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR. *Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions*, 1(3), 112-118.
3. Ashurov, J. D. (2025). ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDA SUN'IY INTELEKTDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(2), 57-59.
4. Goodfellow, I., Bengio, Y., Courville, A., & Bengio, Y. (2016). *Deep learning* (Vol. 1, No. 2, pp. 1-800). Cambridge: MIT press.
5. Miao, F., & Holmes, W. (2021). Artificial intelligence and education. Guidance for policy-makers.
6. Rauajovich, A. J. (2026). SUN'IY INTELEKT YORDAMIDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI. *Научный Импульс*, 4(41), 10-13.
7. Russell, S., & Norvig, P. (2010). *Artificial intelligence: a modern approach*. 3rd. Upper Saddle River, EUA: Prentice-Hall.

8. Yuryevna, P. N. (2025). TA'LIMDA SUN'IY INTELEKTNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI. *AMERICAN JOURNAL OF BUSINESS MANAGEMENT*, 3(11), 75-84.